

O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi

o'qituvchi, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17320036>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar va ularning samaradorligi tahlil etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion metodlarning tutgan o'rni, o'zbek tilini o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tadqiq etilgan. Maqolada til o'rganish jarayonida samaradorlikni oshirish, zamonaviy metodlarni amaliyotga keng joriy etish va ikkinchi til sifatida o'zbek tilini o'qitishda yangi yondashuvlarni qo'llashning ilmiy asoslarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ikkinchi til, o'zbek tilini o'qitish, ta'lim metodlari, o'quv materiallari, innovatsion texnologiya, ta'lim samaradorligi.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

Мамацонава Мохичехрахон Убайдулло кызы

преподаватель Ферганского медицинского института общественного
здравоохранения

Аннотация: В данной статье проанализированы современные методы, применяемые при преподавании узбекского языка как второго, и оценена их эффективность. Также исследована роль инновационных методов в формировании языковой компетенции учащихся, выявлены проблемы, возникающие в процессе освоения узбекского языка, и предложены пути их решения. В статье раскрыты научные основы повышения эффективности процесса изучения языка, широкого внедрения современных методов в практику и применения новых подходов в преподавании узбекского языка как второго.

Ключевые слова: узбекский язык, второй язык, преподавание узбекского языка, методы обучения, учебные материалы, инновационные технологии, эффективность обучения.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

Маматханова Мохичехрахон Убайдулло кызы, преподаватель,

Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения

Abstract: This article analyzes the modern methods used in teaching Uzbek as a second language and evaluates their effectiveness. It also examines the role of innovative methods in developing learners' language competence, identifies the challenges that arise in the process of learning Uzbek, and explores ways to overcome them. Furthermore, the article reveals the scientific foundations of enhancing efficiency in the language learning process, widely implementing modern methods in practice, and applying new approaches to teaching Uzbek as a second language.

Keywords: Uzbek language, second language, teaching Uzbek, teaching methods, learning materials, innovative technology, educational efficiency.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida milliy tillarning nufuzi va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish masalasi respublikamizda ham, xorijiy mamlakatlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tili boy tarixiy ildizlarga ega bo'lib, Markaziy Osiyoda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Shu sababli uni samarali va zamonaviy metodlar asosida o'qitish nafaqat til o'rganuvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va kommunikativ yondashuvlar o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, amaliy muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli resurslar, multimedia vositalari va elektron platformalardan foydalanish o'zbek tili darslarini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon bermoqda.

“Ma'lumki, inson kamoloti, uning yashash davridagi muhit va tarbiyaga hamda o'sha davrlardagi ongli faoliyatiga bog'liq holda rivojlanadi. Bolalar juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi va asta-sekinlik bilan bu faoliyat ularning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir etib, shaxs sifatida shakllanib boradi”[1, 36].

Ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy metodlar deganda, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini chuqur o'zlashtirishga, ularni mustaqil fikrlashga va amaliy faoliyatga jalb etishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tushuniladi. An'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda zamonaviy metodlar o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Bunday metodlar jumlasiga interfaol o'qitish usullari, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'yinlashtirish va kommunikativ yondashuv kiradi. Ularning barchasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilai birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksa axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir”[2, 47].

Zamonaviy metodlarning ahamiyati shundaki, ular bilimlarni faqat nazariy darajada emas, balki amaliy hayotda qo'llash imkoniyatini beradi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi ortadi, o'quvchilar esa mustaqil qaror qabul qila oladigan, bilim va ko'nikmalarini real vaziyatlarda qo'llay oladigan shaxslar sifatida shakllanadi.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

O'zbek tilini o'qitishda turli metodlar mavjud. Quyida ba'zi samarali metodlarni ko'rib chiqamiz:

1. Kommunikativ metod. Bu metod tilni muloqot orqali o'rgatishga qaratilgan. Talabalar tilni amaliyotda qo'llashga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bu metod yordamida talabalar suhbatlarda qatnashib, real vaziyatlarda tilni qanday ishlatishni o'rganadilar.

2. Grammatika-til metodlari. Bu metodda tilning grammatik qoidalari va strukturalariga katta e'tibor beriladi. O'rgatuvchilar grammatika qoidalarini tushuntirib, ko'plab mashqlar orqali ularni mustahkamlaydilar.

3. Leksik metod: Bu metodda yangi soʻzlar va ifodalar oʻrganishga eʼtibor qaratiladi. Talabalar leksik birliklarni kontekstda oʻrganadilar va ularni amaliyotda qoʻllash orqali yodda saqlaydilar.

4. Audiovizual metod: Bu metodda tinglash va koʻrish materiallari, masalan, videolar, filmlar, va audio yozuvlar yordamida til oʻrgatiladi. Bu usul tilni tabiiy muhitda oʻrganishga yordam beradi.

5. Interaktiv metod: Oʻquvchilarga oʻzaro muloqot qilish va bahs-munozaralarda ishtirok etishga imkon beradi. Guruhlarda ishlash va loyiha asosida oʻqitish bu metodning asosiy qismidir.

6. Oʻyin orqali oʻqitish metodlari: Til oʻrgatishni qiziqarli qilish uchun turli oʻyinlar va mashqlar qoʻllaniladi. Bu metod orqali talabalar tilni oʻrganishda motivatsiya va qiziqishni oshiradilar.

7. Kognitiv metod: Bu metod til oʻrganishni kognitiv jarayonlar orqali, masalan, asosiy tushunchalar va kategoriyalar yordamida amalga oshiradi. Talabalar tilni oʻzlarining mavjud bilimlari va tajribalariga asoslanib oʻrganadilar.

8. Holistik metod: Til oʻrgatishda butunlikka eʼtibor qaratadi va tilni turli kontekstlarda, madaniyat bilan birgalikda oʻrganishni tavsiya etadi.

Oʻzbek tilini oʻqitishda ushbu metodlarni birlashtirish va talabalar ehtiyojlariga moslashtirish samarali natijalar beradi.

NATIJALAR

Oʻtkazilgan kuzatuvlar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilini ikkinchi til sifatida oʻqitishda zamonaviy metodlardan foydalanish oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar orqali oʻquvchilar dars jarayonida faol ishtirok etishi, oʻz fikrini erkin ifodalashi va mustaqil qaror qabul qilishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi kuzatildi.

Raqamli texnologiyalar va multimedia resurslaridan foydalanish taʼlim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishi, ayniqsa chet ellik oʻrganuvchilar uchun oʻzbek tilini tezroq oʻzlashtirish imkonini berishi qayd etildi. Loyiha va muammoli vaziyat asosida oʻqitish esa oʻquvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantiradi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy metodlarni anʼanaviy usullar bilan uygʻunlashtirib qoʻllash taʼlim samaradorligini yanada oshiradi. Bunda metod tanlash jarayoni oʻquvchilarning yoshi, bilim darajasi va darsning maqsadidan kelib chiqib amalga oshirilishi zarurligi muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Oʻzbek tilini ikkinchi til sifatida oʻqitish metodlarining ahamiyati tilni oʻrganuvchilarga samarali oʻquv jarayonini taqdim etish, madaniyat va til oʻrtasidagi aloqani oʻrgatish, hamda til oʻzlashtirish jarayonini yengillashtirishda namoyon boʻladi:

1. Tilni samarali oʻzlashtirish. Oʻzbek tilini ikkinchi til sifatida oʻqitishda foydalaniladigan metodlar oʻquvchilarga tilni tushunish, yozma va ogʻzaki ravishda ifodalashga yordam beradi. Masalan, kommunikativ yondashuv tilni real hayotiy vaziyatlarda qoʻllashga oʻrgatib, oʻquvchilarning til koʻnikmalarini rivojlantiradi. Ushbu usullar orqali oʻquvchilar til qoidalarini muloqot jarayonida samarali ishlatishni oʻrganadilar, bu esa ularning tilni tabiiy tarzda oʻzlashtirishiga imkon yaratadi.

2. Madaniyatni anglash. Oʻzbek tilini oʻrganish jarayonida mamlakatning madaniyati, qadriyatlari va urf-odatlar haqida bilib olish tilni yanada chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Madaniy kontekstga asoslangan metodlar o'quvchilarga til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi, bu esa ularni o'zbek tilida muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan madaniy bilimlarga ega qiladi. Shunday qilib, o'quvchilar nafaqat tilni, balki uning ortidagi madaniyatni ham o'rganib, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini oshiradilar.

3. Tilni tez va oson o'zlashtirishga yordam. Lingvistik qiyosiy tahlil kabi metodlar o'quvchilarga ona tilidagi va o'zbek tilidagi o'xshash va farqli jihatlarni tushunish imkonini beradi. Bu yondashuv til o'rganuvchilarga o'zbek tilining grammatikasi, talaffuzi va so'z boyligini o'rgatishda yordam beradi. Shu tarzda, qiyosiy ta'lim metodlari orqali o'quvchilar til farqlarini o'rganadi va qiyin bo'lgan tuzilmalarni ham yengilroq o'zlashtiradi.

4. Interaktiv mashqlar va texnologiyaning qo'llanishi. Interaktiv metodlar va texnologiya yordamida o'quv jarayonini qiziqarli qilish tilni o'rganuvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida videolar, onlayn resurslar va interaktiv darsliklar orqali o'quvchilar talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Bundan tashqari, texnologiya vositalari orqali mashqlarni diversifikatsiya qilish til o'rganuvchilarni rag'batlantirib, dars jarayonini jonlantiradi.

5. Ko'nikmalarni mustahkamlash. O'zbek tilini o'qitishda grammatik va lug'at ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustahkam bilim olishini ta'minlaydi. Bu orqali ular yozma va og'zaki ravishda o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda qilishga o'rgatiladi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodlari til o'rganuvchilarga tilda samarali va qiziqarli muloqot qilish, madaniyat bilan tanishish va o'zlashtirish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Kommunikativ yondashuv, madaniy kontekstni o'rgatish, interaktiv mashqlar va texnologiyadan foydalanish kabi metodlar o'quvchilarning tilni tushunishi va qo'llashiga katta yordam beradi.

Metodlarning samaradorligi o'quvchilarni turli usullar bilan rag'batlantirish va amaliy mashqlar orqali bilimlarini mustahkamlashda namoyon bo'ladi. O'quvchilarning ona tiliga asoslangan qiyosiy tahlillar, lingvistik farqlarni tushunishga ko'maklashadi va til o'rgatish jarayonini yengillashtiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun madaniy va tarixiy jihatlarni ham qamrab olish foydali bo'ladi.

XULOSA

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol usullar, kommunikativ yondashuv hamda raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning til o'zlashtirish jarayonini yengillashtirib, ularni amaliy nutq faoliyatiga jalb etadi. Shuningdek, innovatsion metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada tahlil qilingan yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda zamonaviy metodlarni amaliyotga keng tatbiq etish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki kommunikativ savodxonlikni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu metodlarni ta'lim jarayonida muntazam ravishda qo'llash va yangilab borish o'zbek tili ta'limining sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Hasanboyev. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2016.
2. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2011.
3. Djurayevna, M. M. (2023). The Impact of Non-linguistic Elements on Phonostylistic Changes. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 18, 153-157.
4. Anvarov, A. (2025). THE ROLE OF REVERSIBLE EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS OF MEDICAL EDUCATION. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 2(6, 2-qism), 135-138.
5. Ганиев, М. М. (2021). Роль иллюстративно-объяснительного обучения русскому языку иностранных студентов. *Молодой ученый*, (1), 53-55.
6. Karimovna, M. O. (2022). Linguocultural features of phraseology in Uzbek and German languages. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 481-482.
7. Салиев, У., & Салиева, Н. (2024). ЗАДАЧИ МЕДИЦИНСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕОНТОЛОГИИ. *Interpretation and researches*, 2(13), 82-85.
8. Мадаминов, А. А. (2025). ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИГА ФУНКЦИОНАЛ ТАЪСИРИНИНГ ИЖТИМОЙФАЛСАФИЙ ЖИХАТЛАРИ. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 1272-1275.
9. Kosimov, K. (2025). CURRENT ISSUES OF YOUTH SOCIOLOGY. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(32), 108-112.
10. Rasulovna, K., Erkinovna, A. U., Sobirovna, T. O., Xusenovna, I. I., & Tulkinovna, I. S. (2020). Teaching foreign vocabulary of the medical field to students of medical higher educational institutions. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 527-535.
11. Ахмедова, У. Э. (2018). ЗНАКОМСТВО С ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИНОНИМИЕЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *10.00. 00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*, 13.
12. Жураева, М. (2025). Lotin tilida tibbiyot ta'limida talabalarni klinik terminlar orqali professional ko 'nikmalarini rivojlantirish. *Лингвоспектр*, 1(1), 222-227.
13. Исроилова, С. М. (2024). ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 1066-1071.
14. Mamatxonova, M. (2024). TRADITION AND INNOVATION IN THE WORKS OF OMON MUKHTOR. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 26(1), 167-173.
15. Abdurahimova, M. (2025). SUKUT PSIXOFIZIOLOGIYASI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 72-72.
16. Каримов, Ў., Каримова, Г., & Каримов, Ў. (2021). Илм-Фан Ва Таълим Соҳасидаги Ахборотлашув. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 103-110.
17. Азимов, У. А. (2021). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАРИНИНГ ДЕМОКРАТИК ЖАРАЁНЛАРГА АКЦИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Scientific progress*, 2(1), 1558-1562.